



## INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Bayjanova Sadokat Ilxamovna,

Urganch davlat pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o'qituvchisi.

bayjanovasadoqat3010@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1606>

### MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-A

**Maqola raqami:** 46

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

innovatsion ta'lim, innovatsion muhit, pedagogik jarayon, pedagogik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial yondashuv, reflektiv metod, empatik metod, kooperativ metod, raqamli ta'lim

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu ilmiy ishda innovatsion ta'lim muhitida pedagogik fanlarni o'qitishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta'limning ijtimoiy-pedagogik zarurati, uning insonparvarlik va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanganligi hamda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etish tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion ta'lim muhiti, innovatsion yondashuv va pedagogik kompetensiya kabi asosiy kategoriyalar o'zaro bog'liqlikda tahlil etilib, ularning pedagogik jarayondagi o'rni asoslab berilgan. Innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishda pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning o'rni yoritilib, ularning o'quv jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy metodlar orqali talabalarning ijtimoiy-faol pozitsiyasini shakllantirish, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada pedagogik jarayonni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishning amaliy mexanizmlari ko'rsatilib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 15 april 2026

**Approved:** 17 april 2026

**Volume:** 18-A

**Paper number:** 46

### KEYWORDS

innovative education, innovative environment, pedagogical process, pedagogical competence, competency-based approach, learner-centered education, differentiated approach, reflective method, empathic method, cooperative method, digital education

### ANNOTATION

This scientific work analyzes the theoretical and methodological foundations of organizing the pedagogical process in inclusive education settings. The study highlights the socio-pedagogical necessity of inclusive education, its humanistic paradigm, and the principles of learner-centered organization of the educational process. In addition, it examines the interrelated categories of inclusive environment, inclusive approach, and inclusive competence, and substantiates their role in the pedagogical process. The role of pedagogical technologies and digital tools in the formation of an innovative educational environment is highlighted, and their importance in individualizing the educational process and increasing its efficiency is justified. Special attention is paid to the issues of forming a socially active position of students, developing communicative and reflexive competencies through modern methods used in the educational process. The article also shows practical mechanisms for organizing the pedagogical process based on innovative approaches, and develops methodological recommendations that serve to improve the quality of education.

**Kirish.** Innovatsion ta'limning ijtimoiy-pedagogik zarurati jamiyatning insonparvarlik tamoyillariga o'tishida, shaxsning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yogga chiqarishi pedagogik paradigmaning markaziga aylandi, u o'qituvchidan nafaqat metodik, balki ijtimoiy-emotsional tayyorgarlikni ham talab etadi. “Axborot-ta'lim muhitida inklyuzivlik – bu shaxsiylashtirilgan, interaktiv va hamkorlikka asoslangan o'quv jarayoni” sifatida qaraladi. Inklyuziv muhitni yaratish uchun faqat didaktik resurslar emas, balki jamiyatning ijtimoiy tafakkurini o'zgartirish ham zarur. Chunki har bir talaba o'z qobiliyati, xarakteri, hissiyoti bilan noyobdir, va ta'lim tizimi shu xilma-xillikka tayyor bo'lishi kerak. Shu jihatdan, inklyuziv ta'lim insonning shaxs sifatida rivojlanishini, mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyat sezish va o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida anglashini qo'llab-quvvatlaydi. Bugungi ta'limning bosh g'oyasi – farqlilikni kamchilik emas, balki jamiyat boyligi sifatida qabul qilishdir.

Ta'lim tizimida har bir talabaning shaxsiy rivojlanish bosqichini inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bu ijtimoiy adolatning ta'limdagi amaliy ko'rinishidir, chunki u barcha bolalar uchun ta'lim olishda teng imkoniyat va munosabatni kafolatlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston sharoitida ta'lim masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (2020) hamda PQ-4860-sonli qarorda bu yo'nalish bo'yicha huquqiy asoslar mustahkam belgilab berilgan. Mazkur hujjatlar jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan bag'rikenglikni kuchaytirish, ularga mos ta'lim imkoniyatlarini yaratish hamda pedagoglarni yangi kompetensiyalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi [2, 32].

R.A.Mavlonova o'z asarlarida ta'kidlaganidek, inklyuziv muhitda ta'lim jarayonining markazida talabaning shaxsiy ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlari turadi, ya'ni ta'lim “bir xillik” emas, “moslashtirilganlik” tamoyiliga asoslanishi kerak. [4, 384]

N.A.Muslimov bu g'oyani yanada chuqurlashtirib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni inklyuziv ta'lim bilan bog'laydi. Unga ko'ra, har bir talaba o'zining ijtimoiy adaptatsiyasi jarayonida kommunikativ, reflektiv va axloqiy kompetensiyalarni egallashi lozim. Shaxsni ijtimoiy

muhitda o'z o'rini topishga, muammolarni mustaqil hal etishga va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatish – bu tamoyillarning amaliy natijasidir [5, 256].

D.X Boboyeva inklyuziv muhitni shaxsni ijtimoiy adaptatsiyaga tayyorlovchi tizim sifatida talqin qiladi [6, 120]. Unga ko'ra, bu jarayon talabaning o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishga, o'z imkoniyatlari va chegaralarini to'g'ri baholashga yordam beradi. Tarbiya fani kontekstida esa bu juda muhim, chunki aynan tarbiya insonning ijtimoiy xulq-atvori, axloqiy qadriyatlarini va madaniy o'zini anglashini shakllantiradi.

Bizning fikrimizcha inklyuziv ta'limning maqsadlari nafaqat ta'lim jarayonini qayta tashkil etish, jamiyatda insonparvar, bag'rikeng va hamkorlikka tayyor avlodni tarbiyalashga qaratilganligidadir.

1956-yilda Bloom o'zining mashhur “ta'lim maqsadlari taksonomiyasi”da bilim olish jarayonini uch asosiy soha – kognitiv (bilish), affektiv (munosabat) va psixomotor (harakat) yo'nalishlariga ajratgan edi. Bu tasnif inklyuziv ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan asoslashda muhim rol o'ynaydi [8, 207].

Vigotskiy (1983) o'zining ijtimoiy-madaniy nazariyasida inson rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda tahlil qiladi [7, 159]. Unga ko'ra, bola faqat o'zi o'rgangan bilim orqali emas, balki hamkorlikda o'rganish jarayoni orqali yuqori darajaga ko'tariladi. Shu sababli, hamkorlik tamoyili insonparvarlik bilan bevosita bog'liq, chunki talaba o'zini jamoaning faol a'zosi sifatida his qilganda, unda ijobiy motivatsiya paydo bo'ladi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda innovatsion ta'lim muhitida pedagogik jarayonni tashkil etish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar tashkil etadi.

Ish jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy tahlil doirasida pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlar o'rganilib, innovatsion va inklyuziv ta'limga oid ilmiy qarashlar


umumlashtirildi. Empirik metodlar sifatida kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun kooperativ, reflektiv, empatik va differensial metodlarning amaliy qo'llanishi tahlil qilindi. Olingan natijalar sifat va mazmun jihatdan tahlil etilib, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali xulosalar shakllantirildi.

**Natijalar.** Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlarini har – xil umumlashtirilishi mumkin:

ta'limdagi tenglikni ta'minlash, bu barcha talabalarga – ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar – sifatli ta'lim olish imkonini yaratish deganidir;

ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish, ya'ni talabalarni jamiyat hayotiga faol jalb etish, ularda fuqarolik ongini shakllantirishdir;  
shaxsiy rivojlanish – har bir bolaning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'ziga ishonch va mustaqil fikrlashni shakllantirishdir;  
madaniy bag'rikenglikni rivojlantirish, ya'ni turli madaniyat, e'tiqod, qobiliyat va ehtiyojlarni o'zaro hurmat asosida birlashtirishdir;  
mustaqil fikrlashni shakllantirish – bu talabanning o'z qarorlarini ongli ravishda qabul qilishi va mas'uliyatni his qilishi demakdir. (1-rasmga qarang)



1-rasm. Inklyuziv ta'limning maqsad yo'nalishlari va mazmuni

Inklyuziv tarbiya jarayonida psixologik xavfsizlik talaba ovoziining tabiiy natijasidir. Agar bola o'z fikrini erkin ayt olsa, bu sinfda ishonch va hamjihatlik madaniyati mavjudligidan dalolat beradi. Tarbiya darsida bunday muloqot orqali bolalar nafaqat axloqiy tushunchalarni o'rganadi, balki ijtimoiy o'zaro munosabatlarni ham anglay boshlaydi – bu esa “o'rganishning ichki mexanizmi”ni faollashtiradi.

Tarbiya darsida ko'p usulda ifoda – bu o'quv materialini faqat o'qish orqali emas, balki ko'rish, eshitish, his qilish orqali tushunishdir. Masalan, “empatiya” mavzusida film parchalari, sahna ko'rinishlari yoki interaktiv suratlar orqali hissiy tahlil amalga oshiriladi. Bu vizual va audial kanallar talabanning emotsional idrokini faollashtiradi, shu orqali mavzuning mazmuni chuqurroq anglanadi.

Inklyuziv ta'lim muhiti pedagogik fanlarni o'qitish uchun eng muhim shart-sharoitlardan biridir. U talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, o'z fikrini bildirishga, boshqalarni tushunishga va ijtimoiy qadriyatlarini qadrlashga o'rgatadi. Bunday muhitda o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik, ishonch va ijtimoiy mas'uliyat asosida qurilgan pedagogik aloqalar vujudga keladi. Natijada, tarbiya fani faqat nazariy bilim emas, balki hayotiy qadriyatlarini shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Inklyuzivlikning nazariy asosida insonparvarlik paradigmasi yotadi. Bu paradigma ta'limni “inson uchun” deb belgilaydi – ya'ni talaba ta'lim tizimining ob'ekti emas, balki sub'ekti sifatida qaraladi. Shu bois tarbiya fanida o'qituvchi talabani muammosi yoki cheklovi bilan emas, balki uning ichki imkoniyatlari bilan baholaydi.

Innovatsion ta'lim metodikasi zamonaviy tarbiya fanida yordamchi emas, balki markaziy o'qitish tizimiga aylanganligi, bunda asosiy maqsad – talabani o'z hayotiy tajribasi orqali o'rganishga jalb etish, o'zini anglash va ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishga qaratilgan uslubiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun qulay va samarali pedagogik muhit yaratish zarurligi bayon etilgan.

Innovatsion yondashuv asosidagi tarbiya fanining mazmuni o'z ichiga uchta muhim qatlamni oladi: birinchisi – axloqiy qadriyatlar va inson huquqlarini o'rgatish; ikkinchisi – ijtimoiy faoliyat va hamkorlik orqali o'rganish; uchinchisi – reflektiv tajriba orqali shaxsiy o'sishni ta'minlash. Har bir qatlamning o'z metodik asoslari mavjud bo'lib, ular ta'limni nafaqat o'quv natijasi, balki shaxsiy o'zgarish jarayoni sifatida talqin etadi.

Tarbiya fanining mazmunini yangilashda, shuningdek, metodologik moslashuv ham muhim. Har bir mavzu faqat bilim manbai sifatida emas, balki talaba hayotida muhim qadriyatlarini shakllantiruvchi vaziyat sifatida keltirilishi kerak. Masalan, “Do'stlik va hurmat” mavzusi shunchaki

nazariy tushuncha sifatida emas, balki guruh ichida o'zaro yordam, ijtimoiy hamkorlik, yoki kichik loyihalar orqali o'rganilishi mumkin. Bu holatda mazmun va metod bir-birini to'ldiradi.

Endilikda dars jarayoni tayyor ma'lumotni o'zlashtirishdan ko'ra, shaxsiy tajriba almashinuvi, o'z fikrini ifoda etish, bahslashish va kelishuv topish kabi faoliyatlari orqali tashkil qilinadi.

Quyida innovatsion metodlar yo'nalishlari berilgan:

**Kooperativ metodlar** – talabalar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni shakllantiradi, har bir ishtirokchining fikrini eshitish va qadrlash madaniyatini rivojlantiradi.

**Reflektiv metodlar** – fikr almashish, muhokama va o'z fikrini qayta tahlil qilish orqali shaxsiy o'sishga xizmat qiladi.

**Empatik metodlar** – talabalar o'rtasida his-tuyg'ularni anglash va boshqalarning holatiga kirish qobiliyatini rivojlantiradi.

**Differensial metodlar** – bu har bir talabanning shaxsiy imkoniyati, o'rganish uslubi va motivatsiyasini hisobga olgan yondashuvdir.

**Texnologik metodlar** – bu vizual, raqamli va multimodal vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Bu metodlar o'zaro bog'langan tizim sifatida ishlaganda, inklyuziv darsning to'liq modeli shakllanadi. Quyidagi tahliliy izoh bu jarayonni yanada aniqlashtiradi: kooperativ metodlar – jamoaviy muloqotni kuchaytiradi; reflektiv metodlar – individual anglashni chuqurlashtiradi; empatik metodlar – his-tuyg'ularni uyg'unlashtiradi; differensial metodlar – teng imkoniyatni kafolatlaydi; texnologik metodlar – o'quv muhiti imkoniyatlarini kengaytiradi.

**Muhokama.** Innovatsion metodlarning yana bir amaliy imkoniyati – bu ularning universalligi. Shuning uchun ham ular “moslashuvchan metodlar” sifatida ta'riflanadi.

Raqamli texnologiyalar bugungi inklyuziv ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular o'quv jarayonini har bir talabanning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Tarbiya fanida raqamli vositalar nafaqat o'quv materiallarini yetkazish usuli, balki axloqiy, estetik va kommunikativ qadriyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida ishlaydi.

Tarbiya fanida raqamli integratsiya jarayoni turli shakllarda amalga oshirilmoqda. Bunga vizual hikoyalar (digital storytelling), ijtimoiy simulyatsiyalar, axloqiy dilemmalarni modellashtiruvchi o'yinlar, yoki virtual muhokama platformalari kiradi. Masalan, talabalar “Bag'rikenglik kuni” mavzusida video intervyu tayyorlash, guruhda “Yaxshi fuqarolik” bo'yicha raqamli plakatlar yaratish yoki onlayn forumda muayyan axloqiy muammolarni muhokama qilish orqali o'zaro fikr almashadilar. Bu usullar

har bir talabaning ovozini eshitishga imkon yaratadi, bu esa inklyuziv muhitning asosiy belgilaridan biridir.

Pedagogik fanlarni inklyuziv muhitda o'qitish – bu shunchaki didaktik o'zgarish emas, balki butun pedagogik tizimning qayta loyihalanihini talab qiluvchi jarayondir. Inklyuziv modellashtirish o'qituvchiga talabalarning individual farqlarini inobatga olib, ta'limni ijtimoiy, hissiy va kognitiv jihatdan muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu yondashuv darsni “barcha uchun qulay” emas, balki “har bir talaba uchun qulay” tizimga aylantiradi.

Innovat ta'limda bu tizimning asosiy samarasi – adolatli ishtirok muhitini yaratishdir. Har bir metod talabani faollikka undaydi, har bir shakl uni jamoadagi a'zoga aylantiradi, har bir vosita esa unga real kirish imkonini beradi. Tarbiya fanini inklyuziv ta'limda o'qitish nafaqat pedagogik texnologiya, balki insoniy aloqani qayta tiklash, o'rganish jarayonini empatik, ochiq va barqaror qilish tizimidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020. – 32 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. – T., 2020.
4. Mavlonova R.A. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001. – 384 b.
5. Muslimov N.A. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. – T.: Fan, 2015. – 256 b.
6. Boboyeva D.X. Inklyuziv ta'lim va ijtimoiy adaptatsiya masalalari. – T.: Tafakkur, 2018. – 120 b.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1983. – 159 p.
8. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 1956. – 207 p.
9. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. – Paris: UNESCO, 2008. – 45 p.
10. Ainscow M. Developing Inclusive Education Systems. – London: Routledge, 2005. – 176 p.
11. Florian L. Inclusive Pedagogy in Action. – London: Routledge, 2014. – 192 p.
12. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: CSIE, 2011. – 220 p.
13. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2019. – 150 b.
14. Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O'zbekiston, 2021. – 200 b.
15. O'zbekiston Respublikasi OTMlarining metodik qo'llanmalari. – T., 2022. – 180 b.

**Xulosa.** Innovatsion ta'lim muhitida pedagogik jarayonni tashkil etish ta'lim mazmuni, shakli va metodlarini yangicha yondashuv asosida uyg'unlashtirishni talab etadi. Bunda ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi turib, uning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyatda innovatsion metodlarning qo'llanilishi o'quv jarayonini faollashtiradi, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy hamkorligi va emotsional rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, differensial va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar ta'limda teng imkoniyat yaratib, har bir talabaning o'z salohiyatini namoyon etishiga sharoit yaratadi.

Raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik vositalarning joriy etilishi ta'lim muhitini yanada interaktiv va moslashuvchan qiladi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Natijada, pedagogik jarayon samarali, mazmunli va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan tizim sifatida shakllanadi.